

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tadbirkorlik va boshqaruv fakultetining professor-o'qituvchilari va xodimlari o'rtasida sportning mini futbol turi bo'yicha o'tkazilgan "Xotira turniri"

BAYONNOMASI

24.04.2024

Denov tumani

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti professor-o'qituvchilari va xodimlari o'rtasida sportning mini futbol turi bo'yicha o'tkazilgan 26-aprel sanasi kuni 9-may "Xotira va qadrlash kuni" munosabati bilan Kasaba uyushma qo'mitasining tashabbusi bilan Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti professor-o'qituvchilari va xodimlari o'rtasida sportning mini futbol turi bo'yicha "Xotira turniri" tashkil etildi.

Turnirda "Tadbirkorlik va boshqaruv" fakultetiga qarashli "Axborot texnologiyalari", "Moliya va bank ishi", "Raqamli iqtisodiyot", "Dekanat jamoasi" va "Tarix va falsafa" kafedralari va kafedralarining professor-o'qituvchilari va xodimlaridan tuzilgan terma jamoalar o'rtasida o'zaro mini futbol musobaqasi o'tkazildi. Musobaqa o'zaro teng kurashlar asosida qiziqarli va maroqli tarzda olib borildi. Kasaba uyushma qo'mitasi sovrini uchun o'tkazilgan musobaqada fakultetning to'rtta kafedrasidan tashkil topgan terma jamoalar qatnashdi. Sport musobaqasida kafedra o'qituvchilari hamda dekanat xodimlaridan tashkil topgan jamoalar bir-birlariga qarshi o'yin olib borishdi. Yakuniy natijalarga ko'ra "Tarix va falsafa" kafedراسi jamoasi g'oliblikni qo'lga kiritdi va I-o'rinni egalladi, II-o'rinni "Dekanat jamoasi" va III-o'rinni "Axborot texnologiyalari" kafedراسi terma jamoasi egalladi. Sovrinli o'rinnlarni qo'lga kiritgan jamoalarga Kasaba uyushma qo'mitasining estalik sovg'alari va pul mukofotlari topshirildi.

Fakultetning 9-may "Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan" tashkil etilgan musobaqa kafedralarining professor-o'qituvchilari va xodimlari xotirasida esda qolarli va unutilmas tarzda o'tkazilgan sport musobaqalaridan biri bo'lib, barcha tadbir qatnashchilariga yuqori ko'tarinki kayfiyat bag'ishladi.

Institutning Kasaba uyushma
qo'mitasi raisi:

Fakultet dekani:

A. Ibragimov

M. Toshboboyev



Пробный период Scanitto Pro окончен

Please visit www.scanitto.com

